

# **Yurak ishemik kasalliklari etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, profilaktika va davolash usullari**

**Ubaydullayeva M.A.**

**Toshkent Tibbiyot Akademiyasi**

**Kalit so`zlar:** Yurak ishemik kasalliklari, diagnostika, profilaktika, davolash, koronar angiografiya

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yurak ishemik kasalliklarining diagnostika, profilaktika va davolash usullarini yoritadi. Yurak ishemik kasalliklari koronar arteriyalarning torayishi natijasida yuzaga keladigan yurak mushaklarining qon bilan yetarli darajada ta`minlanmasligi bilan tavsiflanadi. Diagnostika usullari, jumladan, EKG, exokardiografiya va koronar angiografiya yordamida kasallik erta aniqlanadi. Profilaktik choralar sog`lom ovqatlanish, jismoniy faoliyat, chekishdan voz kechish va stressni boshqarishni o`z ichiga oladi. Davolash usullari esa dori-darmonlar va xirurgik muolajalarni qamrab oladi. Ushbu maqola yurak ishemik kasalliklarini samarali boshqarishning muhim jihatlarini ko`rib chiqadi.

**Diagnosis, prevention and treatment of ischemic heart diseases**

**Ubaydullayeva M.A.**

**Tashkent Medical Academy**

**Keywords:** coronary heart disease, diagnosis, prevention, treatment, coronary angiography

**Abstract:** This article covers the methods of diagnosis, prevention and treatment of ischemic heart diseases. Ischemic heart diseases are characterized by insufficient blood supply to the heart muscle, which occurs as a result of narrowing of the

coronary arteries. With the help of diagnostic methods, including ECG, echocardiography and coronary angiography detected early. Preventive measures include healthy eating, physical activity, smoking cessation, and stress management. Treatment options include medications and surgical procedures. This article reviews aspects of the management of ischemic heart disease effectively.

## **Ишемическая болезнь сердца (ИБС): этиология, клиника диагностика, профилактика и методы лечения**

**Убайдуллаева М.А.**

**Ташкентская медицинская академия**

**Ключевые слова:** ишемическая болезнь сердца, диагностика, профилактика, лечение, коронарная ангиография

**Аннотация:** В статье рассмотрены методы диагностики, профилактики и лечения ишемической болезни сердца характеризуются недостаточным кровоснабжением сердечной мышцы, что возникает вследствие сужения коронарных артерий. С помощью методов диагностики, в том числе заболевание ЕКГ, эхокардиографии выявляется и коронографии, на ранних стадиях. Профилактические меры включают здоровое питание, физическую активность, отказ от курения и управление стрессом. Методы лечения включают лекарственные препараты и хирургические процедуры. В данной статье рассматриваются аспекты лечения ишемической болезни сердца эффективно важно.

### **Kirish**

Yurak ishemik kasalliklari (YIK) dunyo bo`ylab keng tarqalgan va o`limning asosiy sabablaridan biridir. Ushbu kasallik yurak mushaklarining qon bilan yetarli darajada ta`minlanmasligi natijasida yuzaga keladi, bu esa ko`pincha koronar arteriyalarining aterosklerotik torayishi bilan bog`liq. YIK ga quyidagi asosiy shakllar kiradi:

1. Stabil stenokardiya;
2. Nostabil stenokardiya;

- 3.Miokard infarkti;
- 4.Miokardial ishemik kardiomiopatiya.

Dunyo miqyosidagi statistik ma`lumotlarga ko`ra 2018-yilda YIK qon aylanish tizimi kasalliklari sabab bo`lgan o`limlarning 53% ini tashkil etgan, bu esa umumiy o`limlar sonining 24%iga teng. 2024-yilning yanvar-mart oylarida O`zbekistonda qayd etilgan o`lim holatlarining 57,9%i qon aylanish, jumladan, yurak ishemik kasalliklari sababli sodir bo`lgan.

## **Diagnostika**

Yurak ishemik kasalliklarini erta aniqlash davolash samaradorligini oshirish uchun muhimdir. Diagnostika usullari quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- 1. Klinik Baholash:** Bemorning shikoyatlari, jumladan, ko`krak sohasida og`riq, nafas qisishi va jismoniy mashq vaqtida og`riqning kuchayishi simptomlari baholanadi.
- 2. EKG (Elektrokardiogramma):** Yurakning elektr faolligi qayd etilib, ishemiya yoki infarkt belgilari aniqlanadi.
- 3. Exokardiografiya:** Yurakning ultratovush orqali tasvirini olish orqali mushaklarning harakatini va valvular funksiyalarini baholash imkonini beradi.
- 4. Koronar Angiografiya:** Yurak arteriyalarining rentgen tasvirlari olingan holda, qon oqimining buzilishi va torayish darajasi aniqlanadi.
- 5. Stress Testlari:** Jismoniy mashqlar yoki dorilar yordamida yurakning ishqalanish holatida qanday ishlashi baholanadi.

## **Profilaktika**

Yurak ishemik kasalliklarini oldini olish sog`lom turmush tarzini saqlashga asoslanadi. Profilaktik choralar quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- 1. Sog`lom ovqatlanish:** Xolesterol va yog`lar miqdorini kamaytirish uchun meva, sabzavot va to`liq donli mahsulotlarga boy dieta tavsiya etiladi.  
-Kunlik xolesterin iste`moli umumiyligi kaloriyaning 5-7% dan oshmasligi tavsiya etiladi, bu kuniga 200-300 mg ni tashkil qiladi.  
-To`yingan yog` kislotalari kunlik kaloriyaning 10%dan kam miqdorida bo`lish kerak. Agar yurak-qon tomir kasalliklari xavfi yuqori bo`lsa, bu miqdorni 5-6% gacha kamaytirish tavsiya etiladi.

-To`yinmagan yog` kislotalari kunlik kaloriyaning 20-35% ini tashkil qilishi mumkin.

2. **Jismoniy Faollilik:** Haftada kamida 150 daqiqa o`rtacha intensivlikdagi aerobik mashqlar (masalan, yurish, yugurish, suzish, velosipedda yurish) yoki 75 daqiqa yuqori intensivlikdagi aerobik mashqlar bilan shug`ullanish tavsiya etiladi.
3. **Chekishdan voz kechish:** Chekish yurak ishemik kasalliklari uchun asosiy xavf omillaridan biri bo`lib, undan voz kechish muhim ahamiyatga ega. YIK bo`yicha o`limlarning taxminan 10-15% i chekish bilan bog`liq. Chekish yurak-qon tomir tizimiga zarar yetkazib, arteriyalarni toraytiradi, qon bosimini oshiradi va qonni quyuqlashtiradi, bu esa yurak xurujlari va insultlar xavfini oshiradi.
4. **Qon bosimini nazorat qilish:** Arterial gipertensiya rivojlanishini oldini olish uchun qon bosimini muntazam nazorat qilish zarur.

Qon bosimi darajalari:

1. Normal qon bosimi

-Sistolik bosim: 120 mmHg yoki undan kam

-Diastolik bosim: 80 mmHg yoki undan kam

2. Chegaraviy yuqori qon bosimi

-Sistolik bosim: 120-129 mmHg

-Diastolik bosim: 80 mmHg

3. Yuqori qon bosimi (1-daraja)

-Sistolik bosim: 130-139 mmHg

-Diastolik bosim: 80-89 mmHg

4. Yuqori qon bosimi (2-daraja)

-Sistolik bosim: 140 mmHg yoki undan yuqori

-Diastolik bosim: 90 mmHg yoki undan yuqori

5. Gipertenziv kriz

-Sistolik bosim: 180 mmHg yoki undan yuqori

-Diastolik bosim: 120 mmHg yoki undan yuqori

- 5. Stressni Boshqarish:** Tadqiqtolar stressning yurak ishemik kasallikkilari xavfini taxminan 40-50% gacha oshirishi mumkinligini ko`rsatdi. Shunday ekan psixologik stressni kamaytirish orqali yurak sog`lig`ini yaxshilash mumkin.

### Davolash:

Yurak ishemik kasalliklarini davolashda tibbiy va xirurgik usullar qo'llaniladi. Davolash strategiyasi kasallikning og`irligiga va bemorning holatiga bog`liq.

#### 1.Dori-darmonlar:

**Antiagregant Preparatlar:** Aspirin kabi preparatlar tromblarning hosil bo`lishini oldini oladi.

**Statinlar:** Xolesterol darajasini kamaytirish orqali aterosklerozning rivojlanishini oldini oladi. Ularga Atorvastatin, Rosuvastatin, Simvastatin, Pravastatin, Lovastatin, Fluvastatin, Pitavastatin kabi dori vositalari kiradi.

**Betta-blokatorlar:** Yurak urish tezligini kamaytirib, yurakning kislorodga bo`lgan talabini pasaytiradi. Ular quyidagi asosiy dorilarni o`z ichiga oladi: Atenolol, Metoprolol, Propranolol, Bisoprolol, Karvedilol, Labetolol, Nadolol, Nebivolol, Sotalol, Esmalol.

**Nitratlar:** Yurak tomirlarini kengaytirish orqali qon oqimini yaxshilaydi. Nitratlar guruhiiga quyidagi dorilar kiradi: Nitroglitserin, Izosorbid dinitrat, Izosorbid mononitrat, Pentaeritritol tetranitrat.

#### 2.Xirurgik Muolajalar:

Toraygan arteriyalar atrofida yangi qon oqim yo`llarini yaratish orqali yurakni qon bilan ta`minlaydi. Bu jarrohlik amaliyoti bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1. Anesteziya: Bemor umumiy anesteziya ostida bo`ladi, ya`ni jarayon davomida og`riq his qilmaydi.
2. Qon tomirining olinishi: Jarroh tananing boshqa qismidan (odatda oyoqdagi safen venasi, qo`ldagi radial arteriya yoki ko`krakdagi ichki torakal arteriya) sog`lom qon tomirini oladi. Bu qon tomiri keyinchalik bypass uchun ishlatiladi.
3. Toraygan arteriyani bypass qilish: Yurakni ochish uchun ko`krak qafasi kesiladi. So`ng sog`lom qon tomiri toraygan yoki to`silgan koronar arteriyani aylanib o`tuvchi yo`l sifatida o`rnataladi. Qon tomirining bir uchi aortaga, ikkinchi uchi esa to`silgan arteriyani pastki qismiga ulanishi mumkin.

4. Jarrohlikning yurak urishini to`xtatib yoki davom ettirib bajarilishi: Operatsiya yurak urishini vaqtincha to`xtatib ( yurak-o`pka mashinasidan foydalanib) yoki yurak urishini davom ettirgan holda amalga oshirilishi mumkin.
5. Kesmani tikish: Jarayon tugagach, ko`krak qafasi tikiladi va bemor reanimatsiya bo`limiga olib boriladi.

Stentlar yoki angioplastika yordamida toraygan arteriyalarni kengaytiradi. Jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Kateter joylashtirish: Bemor mahalliy anesteziya olgandan so`ng, jarroh ingichka, moslashuvchan naycha (kateter)ni son, qo`l yoki qo`ltiq sohasidagi arteriyadan kiritadi va uni koronar arteriyalarga yo`naltiradi.
2. Angiografiya: Kateter orqali contrast modda yuboriladi, bu rentgen tasvirida qon tomirlarining holatini ko`rishga imkon beradi. Toraygan yoki to`silgan joylar aniqlanadi.
3. Ballon angioplastika: Kateter orqali toraygan arteriyaga kichik ballon olib boriladi va toraygan joyda shishiriladi. Bu arteriya devorini kengaytiradi va qon oqimini tiklaydi.
4. Stent joylashtirish: Ko`pincha toraygan joyda arteriyani ochiq saqlash uchun metall yoki dori bilan qoplangan stent o`rnataladi. Stent arteriya devorini qo`llab-quvvatlaydi va qayta torayib qolish xavfini kamaytiradi.
5. Kateterni olib tashlash: Jarayon tugagach, kateter chiqarib olinadi va qon ketishini to`xtatish uchun qo`l yoki son sohasiga bosim qo`llanadi.

## Xulosa

Yurak ishemik kasalliklari tashxisi va davosi uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Erta diagnostika, sog`lom turmush tarzini saqlash va samarali davolash usullari kasallikning oldini olish va uning oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi. Ushbu choralar yordamida yurak ishemik kasalliklaridan o`lim va asoratlar sonini kamaytirish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Braunwald’s Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine”- Douglas P.Zipes, Peter Libby, Robert O.Bonow, 12<sup>th</sup> edition, 2019
2. “Pathophysiology of Heart Disease: A Collaborative Project of Medical Students and Faculty”- Leonard S.Lilly, 6<sup>th</sup> edition, 2020

3. “Clinical Cardiology Made Ridiculously Simple” – Michael A. Chizner, 5<sup>th</sup> edition, 2021
4. “Cardiovascular Physiology Concepts” – Richard E. Klabunde, 3<sup>rd</sup> edition, 2021
5. Journal of the American College of Cardiology (JACC) “Pathophysiology of Ischemic Heart Disease” pages 256-272, 2022
6. . Journal of the American College of Cardiology (JACC) “Advances in the Treatment of Ischemic Heart Disease” pages 785-798, 2020
7. “Клиническая кардиология” – Ю.Н.Беленков, С.А.Бойцов 2012 г
8. “Сердечно-сосудистые заболевания: Руководство для врачей” 2019 г
9. “Ишемическая болезнь сердца” – Ю.Н.Беленков, Г.В.Лазебник 2011 г
10. “Фармакотерапия сердечно-сосудистых заболеваний” – Е.А.Боткин
11. “Практическая кардиология”- Ю.М.Позднякова и В.Б.Красницкого 2007 г
12. ‘Национальные рекомендации по лечению ИБС’
13. “Ichki kasalliklar propedevtikasi” – Yo. Toshxo`jayev, B. Usmonxo`jayev, M. Shukurov, 367-bet, 1996-yil
14. “Ichki kasallilar” (2 jildlik).2010 yil
15. “Klinik radiologiya” – A.Ibragimov, 2003-yil
16. “Yurak va qon tomir kasalliklari” – N.I.Karimov.
17. “Tibbiy diagnostika asoslari” – Yo.M.Shodmonov.